INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER
innovativepublication.uz

FORENSIC LINGUISTICS: ITS FORMATION, MAIN AREAS OF RESEARCH, AND FUTURE PROSPECTS

Jumaniyozova Nuriya Axmedovna

Associate Professor, PhD, University of Digital Economy and Agrotechnologies

SUD LINGVISTIKASI: SHAKLLANISHI, ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Jumaniyozova Nuriya Axmedovna,
Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada sud lingvistikasining amaliy tilshunoslik yo‘nalishi sifatida shakllanish tarixi, asosiy tadqiqot sohalari va rivojlanish istiqbollari yoritiladi. Yo‘nalishning 1968-yilda J. Svartvik tadqiqoti bilan boshlangan ilmiy bosqichi, 1990-yillardagi institutsional rivoji hamda Rossiya va O‘zbekistondagi holati tahlil qilinadi. Sud lingvistikasining huquq tili, sud jarayoni tili va lingvistik dalil kabi uch yo‘nalishi tavsiflanadi.
Kalit so‘zlar: sud lingvistikasi, yuridik lingvistika, lingvistik ekspertiza, muallifni aniqlash, lingvistik dalil, lingvokriminalistika, huquq tili.
Abstract. The article examines the formation, main research areas and prospects of forensic linguistics as a branch of applied linguistics. It traces the field from J. Svartvik’s 1968 study to its institutionalisation in the 1990s and reviews its current state in Russia and Uzbekistan. Three core areas are described: the written language of the law, language in legal processes, and language as evidence.
Keywords: forensic linguistics, legal linguistics, linguistic expertise, authorship attribution, linguistic evidence, language and the law.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslik til hodisalarini faqat til tizimining ichki qonuniyatlari doirasida emas, balki boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganishga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Ana shunday fanlararo integratsiyaning yorqin natijalaridan biri sud lingvistikasi (ingl. *forensic linguistics*) bo‘lib, u til, jinoyat va huquq kesishgan nuqtada shakllangan amaliy tilshunoslik yo‘nalishidir [3; 7].

Huquq til vositasida yaratiladi, ifodalanadi va talqin qilinadi: qonun matni, shartnoma, so‘roq bayonnomasi, guvoh ko‘rsatmasi va sud hukmi – barchasi til hodisasidir. J. Olsson ta’kidlaganidek, sud lingvistikasi “tilshunoslik va huquq, jumladan, huquqni

muhofaza qilish faoliyati o‘rtasidagi chegara” hisoblanadi [8]. R. Shuy esa oddiy odam rentgen suratini shifokor kabi o‘qiy olmaganidek, tilshunos ham oddiy kishi ko‘rmaydigan til tuzilmalarini ko‘ra olishini qayd etadi [7].

Mazkur tezisning maqsadi – jahon va mintaqaviy manbalar asosida sud lingvistikasining shakllanish bosqichlari, asosiy tadqiqot yo‘nalishlari hamda O‘zbekistonda rivojlanish istiqbollarini umumlashtirishdan iborat.

Sud lingvistikasining shakllanish tarixi

Matn muallifligi masalasi qadimgi Yunonistondayoq dramaturglarning bir-birini plagiatda ayblashi bilan paydo bo‘lgan. XIX–XX asrlarda A. de Morgan, T. Mendenhall va U. Yul kabi matematik va statistiklar so‘z va gapning o‘rtacha uzunligi singari o‘lchanadigan belgilar asosida muallifni aniqlashga uringan. Biroq bu urinishlar hali sud amaliyoti bilan ham, tilshunoslik bilan ham bevosita bog‘lanmagan edi [7].

1949-yilda F. Filbrik “Language and the Law: the Semantics of Forensic English” kitobida *forensic English* birikmasini qo‘llagan, ammo u ilmiy muomalaga kirmagan [1; 3]. *Forensic linguistics* atamasi esa 1968-yilda shved tilshunosi Yan Svartvikning “The Evans Statements: A Case for Forensic Linguistics” tadqiqotida ilk bor ishlatilgan [2; 7].

Timoti Evans xotini va qizini o‘ldirishda ayblanib, 1950-yilda qatl etilgan; keyinroq shu uyda yashagan J. Kristi bu qotilliklarni bo‘yniga olgan [6]. Svartvik politsiya yozib olgan to‘rt ko‘rsatmani tahlil qilib, ularda ikki xil uslub – savodli yozma uslub va so‘zlashuv uslubi aralashganini aniqladi. Masalan, “the 12.55 a.m. train” va “the five to one train” kabi birikmalar ko‘rsatmaning bir qismi Evansga tegishli emasligini ko‘rsatgan [7]. Evans 1966-yilda vafotidan so‘ng oqlangan.

Dastlab yo‘nalish sekin rivojlandi, chunki ko‘rsatmalarni yozib olish “Judges’ Rules” qoidalari bilan tartibga solingan edi [7]. 1980–1990-yillarda Buyuk Britaniya, AQSh va Avstraliyada lingvist-ekspertlar sudga tobora ko‘p jalb qilina boshladi; M. Coulthardning tahlillari D. Bentley ishi kabi hukmlarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi [3]. 1993-yilda Xalqaro sud lingvistlari assotsiatsiyasi (IAFL) tashkil etildi, 1994-yildan *Forensic Linguistics* (hozirgi *International Journal of Speech, Language and the Law*) jurnali chiqa boshladi [1; 5].

Scientometrik tahlil ham bu o‘sishni tasdiqlaydi: A. Alduais va hammualliflari Scopus, Web of Science va Lens bazalaridagi 1936–2022-yillarda chop etilgan 6 490 ta hujjatni o‘rganib chiqqan [1]. T. Derin va hammualliflari esa 88 ta maqola asosida sohaning 1968-yildan bugungi kungacha bo‘lgan yo‘lini kuzatgan [5].

Sud lingvistikasining asosiy tadqiqot yo‘nalishlari

M. Coulthard va A. Johnson sud lingvistikasini uch asosiy yo‘nalishga ajratadi: yozma huquq tili, huquqiy jarayon tili va dalil sifatidagi til [3; 6]. Ushbu tasnif soha bo‘yicha nufuzli qo‘llanmalarda ham asos qilib olingan [4].

1) **Yozma huquq tili.** Qonun, shartnoma, ogohlantirish matnlari va ularning tushunarliligi o‘rganiladi. Huquq matnlarining murakkab sintaksisi va terminologiyasi oddiy fuqaroga tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin; shu sababli lingvistlar soddalashtirilgan huquqiy til (*plain language*) harakatini qo‘llab-quvvatlaydi [7].

2) **Huquqiy jarayon tili.** Politsiya so‘rovi, guvohdan so‘roq, sudda tarjima va sud majlisidagi muloqot tahlil qilinadi. Masalan, R. Shuy gumonlanuvchi “Miranda huquqlari”ni haqiqatan tushunganmi-yo‘qligini lingvistik jihatdan baholagan [8]. D. Eades esa avstraliyalik aborigenlar ingliz tili va sud muloqoti o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni ko‘rsatib bergan [2].

3) **Dalil sifatidagi til.** Bu eng amaliy yo‘nalish bo‘lib, muallifni aniqlash, plagiatni aniqlash, ovoz va nutq ekspertizasi (sud fonetikasi), savdo belgilari bo‘yicha nizolar va tahdid matnlari tahlilini qamrab oladi [1; 8]. Savdo belgisiga oid mashhur ishlardan biri – “Mc-” prefiksi atrofidagi nizoda R. Shuy lingvistik dalil keltirgan [8].

Bugungi kunda soha virtual muhitga ham kengaymoqda: ijtimoiy tarmoqdagi tahqir, trolling, onlayn muallif identifikatsiyasi va sun’iy intellekt yordamidagi tahlil yangi tadqiqot obyektlariga aylangan [4; 5].

Postsovet makonida va O‘zbekistonda sud lingvistikasi

Rossiyada sud lingvistikasi asosan sud-lingvistik ekspertiza shaklida rivojlangan. K.I. Brinev nazariy tilshunoslik usullarini ekspertiza amaliyotiga tatbiq etish zarurligini asoslagan [12]. E.I. Galyashina esa so‘nggi yillarda huquqni muhofaza qilish organlari lingvistlarni tez-tez jalb qilayotganini, ammo huquqiy tayyorgarligi yetarli bo‘lmagan ekspertlar xulosalaridagi xatolar sudyalarni chalg‘itganini qayd etadi. Muallif buning yechimi sifatida ekspertiza metodikasini unifikatsiya qilish va huquq hamda filologiya bo‘yicha ikki yo‘nalishli tayyorgarlikni taklif etadi [13].

O‘zbekistonda ham yo‘nalish huquqiy asosga ega bo‘lmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi belgilandi [9]. Sud-tergov sohasida lingvokriminalistika va lingvistik ekspertiza tizimini ilg‘or xorijiy standartlar darajasida yo‘lga qo‘yish vazifasi ham qo‘yilgan [11].

O‘zbek tilshunosligida bu boradagi muhim qadam J.N. O‘rozovning “O‘zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqi” PhD dissertatsiyasi va “O‘zbek tili lingvokriminalistikasi”

monografiyasidir [10; 11]. Ularda o‘zbek tilidagi matnlarni jinoyat ishlarini ochishda dalil sifatida tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish ham ushbu yo‘nalishning nazariy bazasini boyitadi [9].

Istiqbolda quyidagi vazifalar dolzarb ko‘rinadi: o‘zbek tili uchun muallifni aniqlashga mo‘ljallangan elektron korpus va idiolekt ma’lumotlar bazasini yaratish; lingvistik ekspertiza metodikasini standartlashtirish va ekspertlar malakasiga talablarni belgilash; filologiya va yuridik oliy ta’limda “Sud lingvistikasi” fanini joriy etish; kiberjinoyatlar, onlayn tahdid va tuhmat matnlarini tahlil qilishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish [1; 5].

Xulosa

Sud lingvistikasi 1968-yilda alohida tadqiqotdan boshlanib, yarim asr ichida o‘z assotsiatsiyasi, jurnallari va metodikasiga ega mustaqil fanlararo sohaga aylandi. Uning uch asosiy yo‘nalishi – yozma huquq tili, huquqiy jarayon tili va dalil sifatidagi til – tilshunoslik bilimlarini adolatli sud jarayoniga xizmat qildiradi.

O‘zbekistonda yo‘nalish endi shakllanmoqda: huquqiy asos yaratilgan, dastlabki monografik tadqiqotlar paydo bo‘lgan. Rossiya tajribasi ko‘rsatganidek, metodik standartlar va malakali kadrlarsiz lingvistik dalil ishonchliligi pasayadi. Shu bois o‘zbek tili korpusiga tayangan ekspertiza metodikasini ishlab chiqish va mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alduais A., Al-Khulaidi M.A., Allegretta S., Abdulkhalek M.M. Forensic linguistics: A scientometric review // Cogent Arts & Humanities. – 2023. – Vol. 10, No. 1. – 2214387. DOI: 10.1080/23311983.2023.2214387.
2. Ariani M.G., Sajedi F., Sajedi M. Forensic linguistics: A brief overview of the key elements // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Vol. 158. – P. 222–225.
3. Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. – London; New York: Routledge, 2007.
4. Coulthard M., May A., Sousa-Silva R. (eds.) The Routledge Handbook of Forensic Linguistics. 2nd ed. – London: Routledge, 2021.
5. Derin T., Evizareza, Deliani S., Hamuddin B. Exploring the Past, Present, and Future of Forensic Linguistics Study: A Brief Overview. – Pekanbaru: Universitas Lancang Kuning, 2019.

6. Gallego Balcells C. An Overview of Forensic Linguistics and its Application in Real-Life Cases: Treball de Fi de Grau. – Barcelona, 2023.
7. Kondrashova I.V. Forensic linguistics: origin, history of development, prospects // International Journal of Humanities and Natural Sciences. – 2022. – Vol. 4-3 (67). – P. 72–77.
8. Olsson J. Forensic Linguistics // Encyclopedia of Life Support Systems (EOLSS). – UNESCO-EOLSS.
9. Jumaniyozova N.A. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023.
10. O‘rozov J.N. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany Print, 2023.
11. O‘rozov J.N. O‘zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.
12. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: монография. – Барнаул: АлтГПА, 2009.
13. Galyashina E.I. Forensic Linguistics in Russia: State of the Art and New Challenges // Theory and Practice of Forensic Science. – 2018. – Vol. 13, No. 4. – P. 28–37.